

МУҒАЛЛИМ ҲАМ ҮЗЛИКСИЗ БИЛИМЛЕНДИРИЎ



Илимий-методикалық журнал

2024

3/3-сан

*Ўзбекистон Республикасы Министрлер Кабинети жанындагы
Жоқарғы Аттестация Комиссиясы Президиумының
25.10.2007 жыл (№138) қарары менен дизимге алынды*

*Қарақалпақстан Баспа сөз ғәм хабар агентлиги тәрәпинен
2007-жылы 14-февральдан дизимге алынды.
№01-044-санлы ғуўалық берилген.*

Нөкис

3/3-сан 2024

ИЮНЬ

Шөлкемлестіріушілер:

Қарақалпақстан Республикасы Халық билимлендириу Министрлиги,
ӨЗПИИИ Қарақалпақстан филиалы

Редактор:

А. Тилегенов

Редколлегия ағзалары:

Мақсет АЙЫМБЕТОВ	Уролбой МИРСАНОВ
Нағмет АЙЫМБЕТОВ	Сафо МАТЧОН
Айтмурат АЛЬНИЯЗОВ	Шукурулло МАРДОНОВ
Сапардурды АБАЕВ	Камаладин МАТЯКУБОВ
Адхамжон АБДУРАШИТОВ	Арзы ПАЗЫЛОВ
Хайрулла АЛЯМИНОВ	Барлықбай ПРЕНОВ
Байрамбай ОТЕМУРАТОВ	Раьно ОРИПОВА
Алишер АЛЛАМУРАТОВ	Бахтиёр РАХИМОВ
Дилшодхўжа АЙТБАЕВ	Фурқат РАЖАБОВ
Интизар АБДИРИМОВА	Муқаддас РАХМАНОВА
Тўлқин АЛЛАЁРОВ	Светлана СМИРНОВА (Москва, Россия)
Марифжон АХМЕДОВ	Дилшода САПАРБАЕВА
Умида БАҲАДИРОВА	Феруза САПАЕВА
Фархад БАБАШЕВ	Зайниддин САНАҚУЛОВ
Ботир БОЙМЕТОВ	Мухаббат САЛАЕВА
Гулзода БОЙМУРОДОВА	Қаххор ТУРСУНОВ
Шахло БОТИРОВА	Амина ТЕМИРБЕКОВА
Маманазар ДЖУМАЕВ	Нурзода ТОШЕВА
Асқар ДЖУМАШЕВ	Куанишбек ТУРЕКЕЕВ
Мухтар ЕРМЕКБАЕВ (Шимкент, Қазақстан)	Тажибай УТЕБАЕВ
Алишер ЖУМАНОВ	Амангелди УТЕПБЕРГЕНОВ
Гүлнара ЖУМАШЕВА	Мамбеткерим ҚУДАЙБЕРГЕНОВ
Холбой ИБРАГИМОВ	Амангелди КАМАЛОВ
Шохида ИСТАМОВА	Вохид КАРАЕВ
Умида ИБРАГИМОВА	Гулмира ҚАРЛЫБАЕВА
Лола ИСРОИЛОВА	Ризамат ШОДИЕВ
Алима КЕНЖЕБАЕВА (Тараз, Қазақстан)	Зафар ЧОРИШАНБИЕВ
Ярмухаммат МАДАЛИЕВ (Шимкент, Қазақстан)	Рустам ФАЙЗУЛЛАЕВ
Меруерт ПАЗЫЛОВА	Дўстназар ХИММАТАЛИЕВ
Асқарбай НИЯЗОВ	Тармиза ХУРВАЛИЕВА
Сабит НУРЖАНОВ	Умид ХОДЖАМҚУЛОВ
Захия НАРИМБЕТОВА	Жавлонбек ХУДОЙБЕРГЕНОВ
Ҳушбоқ НОРБЎТАЕВ	Гулрухсор ЭРҒАШЕВА
Улфат МАҲҚАМОВ	Гавхар ЭШЧАНОВА
	Қонысбай ЮСУПОВ

Yo'ldosheva Sh.B. Kichik maktab yoshidagi o'quvchilarining ijodiy tafakkurini shakllantirish va og'zaki nutqini o'stirish	717
Meyliyeva L. Tarbiyachining innovatsion faoliyatini shakllantirish shartlari	723
Хайдарова О.А. Методика начального образования особенности изучения предлогов в начальных классах	730
Худайбергенова Н.К. Формирование навыков устного и письменного общения учащихся на родном языке и занятия по читательской грамотности	736
Жумашева Г., Бекназарова Х., Хайтимбетова Ш.Ф. Игра как ведущая деятельность в дошкольном возрасте	740
Астанакулова М., Жабборова Ш., Фарходова М. Состояние управленческой культуры специалистов практиков дошкольного образования	745

ТАСВИРИЙ САЪНАТ

Исмаилова М., Уразмбетова Л. Актриса болып туўылған инсан	752
Исмаилова М., Уразмбетова Л. Көркем өнер мектебин жаратқан актёр	757

СОЦИАЛЛЫҚ ПЕДАГОГИКА

Normatova Z.A. Uzluksiz ta'lim modellari kontekstida inson kapitalini boshqarish metodikasi	761
Joldasov I.S. Talabalarda amaliy kompetensiyani shakllantirishning axborot-loyiha texnologiyalari	767
Норматова З.А. Индивидуал йўналтирилган таълим тамойиллари асосида инсон капиталини таъминлашнинг зарурий шарт-шароитлари	772
Исмаилова Р., Исмаилова З.К. Оилавий кадриятлар – мустахкам оила гаровидир	776

ФИЗИКАЛЫҚ ТӘРБИЯ ХАМ СПОРТ

Xudayberdiyev N.A. Jismoniy tarbiya darslari va gandbol sport to'garak mashg'ulotlari	785
Xudayberdiyev N.A. Sport mashg'ulotlari jarayonida yosh voleybolchilarni tayyorlash	788
Pardabayeva M.S. O'q otish sport turida yoshning ahamiyati	792
Yaqubova D.B. Bo'lajak jismoniy madaniyat o'qituvchilarini tayyorlashda kasbiy motivatsiyasining ahamiyati	798
Kodirov M.A., Bakirov I.X. Yosh basketbol bilan shug'ullanuvchi o'quvchilarning umumiy chidamliligini tarbiyalash masalalari	804
Xudayberganov Z.B. Erkin kurashda uslublar xilma-xilligi musobaqalar strategiyasi va natijalariga ta'sirini samarali tahlil qilish	809
Maxmudova M.M. Yosh voleybolchilarni jismoniy va texnik tayyorgarligini takomillashtirishda harakatli o'yinlardan samarali foydalanish masalasi	813
Musayeva D.M. Talabalarni jismoniy va axloqiy-estetik tarbiyalashda sport bayramlarini o'tkazish texnologiyasi	817
Xamidjonov M.U. Boshlang'ich ta'limdagi bolalarning jismoniy faolligini oshirishda jismoniy tarbiya va sportning muhim ahamiyati	822
Tadjibayev J.K. Yoshlar boksida tiklanish strategiyalari: uyqu, ovqatlanish va faol dam olishning roli	826
Tadjibayev J.K. O'smir bokschilarda zarba berish usullarining biomexanik tahlili: samaradorlikni oshirishga ta'siri	833
Kotlov E.V. Yosh basketbolchilarni sport tayyorgarligi masalasi	840
Norqobilov M.N., Oblanazarov F.A. Butterflyay usulida suzuvchilarning kuch tayyorgarligini rivojlantirish	845
Шанк В.В., Болтаев З.Б. Проблемы волейбола от детских спортшкол до профессиональных команд высшего спортивного мастерства в Узбекистане	851
Амонов А.Н. Темпы развития быстроты перемещений и точности ударов у детей 7-8 лет занимающихся настольным теннисом	855



TALABALARDA AMALIY KOMPETENSIYANI SHAKLLANTIRISHNING AXBOROT-LOYIHA TEKNOLOGIYALARI

Joldasov I.S.

Chirchiq davlat pedagogika universiteti

“Umumiy tarix va ta’lim metodikasi” kafedrasi katta o’qituvchisi

Tayanch so’zlar: kasbiy kompetensiya, amaliy kompetensiyasi, axborot-ta’lim muhiti, axborot texnologiyalari, axborot – loyiha texnologiyalari.

Ключевые слова: профессиональная компетенция, практическая компетенция, информационно-образовательная среда, информационные технологии, информационно – проектные технологии.

Key words: professional competence, practical competence, information and educational environment, information technology, Information and project technologies.

Ta’lim muassasalarining ustuvor vazifasi sifatida bugungi kundagi nazariy-ilmiy bilimlar asosida amaliy mashg’ulotlarga alohida e’tibor qaratilayotganligini, ba’zi OTMlarda 50 minutlik ma’ruza va 110 minutlik amaliy mashg’ulotlar belgilashi misolida ham ko’rish mumkin. Ta’lim muassasalarida kasbiy kompetensiyalarni shakllantirishning ikki yo’nalishini ta’kidlash mumkin, birinchisi talabalarning qo’shimcha tarix fanlari asosida ilmiy savodxonlik kompetensiyasi shakllantirish ya’ni, nazariy bilimlar asosida turli obyektlar, hodisa va jarayonlarning o’ziga xos xususiyatlarini bilish, tasavvur qilish va mohiyatini tushunish hamda turli ma’lumotlarni tahlil qilish, saralash va ulardan ta’limiy maqsadlarda foydalanish, muloqot jarayonida bildirilgan fikrlarni tushunishi, mustaqil va ijodiy fikrlashlarini rivojlantirishni nazarda tutadi.

Ikkinchisi, talabalarning amaliy kompetensiyasi bo’lib, turli axborot manbalaridan zaruriy ma’lumotlarni topa olishi, shaxsiy va kasbiy faoliyatida qo’llashi, egallagan bilimlaridan shaxsiy, kasbiy va ijtimoiy faoliyatlarida vujudga keladigan muammolarni hal etishda qo’llay olishi, o’z turmushi va yashayotgan hududining barqaror rivojlanishiga amaliy ko’nikmalarini safarbar



etishi hamda mavjud imkoniyat va resurslarini innovatsion faoliyatga yo'naltira oladi, kundalik faoliyatida ijodiy va mantiqan fikrlab, o'zining intellektual rivojlanishini ongli rejalashtiradi, kelajakdagi o'quv faoliyati, talabalarni kasbga yo'naltirishni prognozlaydi, natijalarini nazorat qiladi va baholay oladi. Ta'kidlangan kompetensiyalarni ta'lim texnologiyalari asosida shakllantirish imkoniyatlari so'ngi yillarda yetarlicha tadqiq etilmoqda.

Ta'lim jarayoniga yangi axborot texnologiyalarining kirib kelishi "kompyuter texnologiyalari" atamasini bosqichma-bosqich "yangi axborot texnologiyalari" tushunchasiga almashtirishga olib keldi. Yangi axborot texnologiyalari vositalari deganda odatda, mikroprotessor, kompyuter texnologiyalari asosida ishlaydigan dasturiy ta'minot va apparat vositalari va qurilmalar nazarda tutiladi. Bu boradi I.Robertning AT-axborotni yig'ish, ishlab chiqarish, to'plash, saqlash, qayta ishlash, uzatish operatsiyalarni ta'minlaydigan zamonaviy vositalar va axborot almashish tizimlaridir, degan fikriga qo'shilish mumkin [1]. O'quv mashg'ulotlarida ulardan samarali foydalanish, amaliy mashg'ulotlar ustuvorligida talabalarning kasbiy shakllantirishning asosiy me'zoni sifatida ta'limning axborot texnologiyasini olishimiz mumkin. Bu bir tomondan, yangi axborot texnologiyalari vositalari majmuasidan foydalangan holda tashkil etilgan o'quv jarayonining bir qismi bo'lsa; ikkinchi tomondan, ta'lim vositalari va ta'lim metodlarining zamonaviy yondashuvlari sifatida asosiy va bosh o'rinni turli axborot kommunikatsiya texnologiyalaridag foydalanish hamda elektron axborot ta'lim muhiti sifatida ko'rib chiqish mumkin.

Elektron axborot-ta'lim muhiti barcha bilim manbalarini birlashtiradi, shuning uchun u juda ko'p turli xil amaliy, ko'rgazmali, og'zaki, kitob bilan ishlash metodlarini, axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalangan holda ta'lim metodlarini amalga oshirishi mumkin. Shuningdek, ularning har birida o'zgartirishlar - ifodalash usullari mavjudligi darsning amaliy jihatlarni oshirish imkonini beradi.[2]

Elektron ta'lim muhitida ta'lim oluvchilarning mustaqil ishlarini tashkil etish imkoniyatlarining kengayishi, fanlarni o'rganishning to'liq didaktik siklini ta'minlovchi asosiy, umumkasbiy sikl fanlarining elektron o'quv-metodik majmualari va kasbiy modul fanlaridan foydalangan holda mustaqil ishlarini tashkil etishni talab qiladi. Ta'lim jarayonidagi har qanday texnologiyalarning ta'lim maqsadiga erishishga xizmat qilishini inobatga olsak, texnologiyalarida aloqa vositalari ta'lim jarayonining mazmuni bilan belgilanadi. Ta'lim natijalarini esa, axborot kommunikatsiya vositalariga emas, balki elektron o'quv-metodik majmualarning mazmuni va taqdimotining sifati belgilab beradi[3]. Biz taklif qilayotgan axborot-loyiha texnologiyasini zamonaviy



loyiha metodi va axborot texnologiyalarining sintezi sifatida baholash mumkin. Tadqiqotda taqdim etilgan axborot-loyiha texnologiyasi ilgari qo'llanilgan loyiha metodini kengaytiradi va algoritmlaydi, bu ta'lim tizimi sifatida ko'rib chiqiladi, unda ta'lim oluvchilar asta-sekin murakkabroq amaliy loyiha vazifalarini rejalashtirish va bajarish jarayonida zaruriy ko'nikmalarga ega bo'ladilar.

Axborot texnologiyalaridan foydalanish va ta'lim oluvchilarning qo'yilgan maqsadini hisobga olgan holda faoliyat turini mustaqil tanlash ko'nikmasi, talabalarning kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirishda o'rganilayotgan muammoning to'liq yechimini berishi emas, uning keyingi rivojlanishi masofaviy ta'lim va o'qitish sharoitida davom ettirilishi bilan ahamiyatli hisoblanadi[4]. Unda amaliy kompetensiyani shakllantirishni rejalashtirish va bosqichma-bosqich murakkablashib boradigan amaliy kasbiy ahamiyatga ega bo'lgan vazifalarni amalga oshiriladigan loyihalar nazarda tutiladi. Shu o'rinda umumta'lim fani sifatida axborot texnologiyalari o'quv predmeti yordamida ijtimoiy gumanitar, aniq va tabiiy fanlar integratsiyasi va uni o'qitish jarayoni samaradorligini oshirishga ulkan imkoniyatlarni yaratadi.

Texnologiyaning mohiyati loyiha topshiriqlarining fanlararo bog'liqligi, loyihaga xos bo'lgan kasbiy ahamiyatga ega bo'lgan muammoni hal qilish integratsiyalashgan bilimlarni jalb qilishni talab qilishi hamda talabalarga keng ma'lumotlarning muhim, yo'naltiruvchi xarakterdagilarini esda saqlab qolishga ham sharoit yaratadi. Bu esa, mustaqil ta'lim jarayonida o'zlashtirilgan fanlararo bilimlar va bo'lajak kasbiy muammolarini hal qilish vositasiga aylanishi kerak. Ta'lim oluvchilar o'zlashtirilgan kompetensiyalarni qo'llash va ularni takomillashtirish uchun mustaqil faoliyatga tayyor bo'lislari kerak. Integrativ, fanlararo ko'nikmalarni shakllantirish hamda mustaqil ishini bajarishni loyihalashtirish va shu asosda belgilangan vazifalarni ketma-ket amalga oshirilishi, ularning murakkablik darajasi oshishi bilan ajralib turadi. Shuningdek, kasbiy nostandart vaziyatlarda qaror qabul qilishga qaratilgan tadqiqot loyihalari ham topshiriqlar, mustaqil o'quv-tadqiqot ishlari hamda kasbiy faoliyatning individual muammolarini chuqur o'rganishni talab qiladi.

Shunday qilib, axborot – loyiha texnologiyalari ta'lim oluvchilarning kasbiy va o'quv motivatsiyasini rivojlantirishga imkon beradi. Umumta'lim va mutaxassislik fanlariga oid bilimlar tizimi orqali amaliy kompetensiyalarni shakllantiradi, ular kasbiy ahamiyatga ega bo'lgan vazifalarni hal qilishda, shuningdek, axborot maydonida harakat qilishda qo'llanilishi bilan ham ahamiyatlidir. "Pedagogik texnologiya" atamasining mazmuniga e'tibor bersangiz, pedagogik vositalaridan foydalangan holda amalga oshiriladigan



bilim sohasi yoki pedagogika fanining bir qismi, ta'lim natijalariga erishishning dinamik jarayoni, bir qator tamoyil va qoidalarga rioya qilgan holda ta'lim jarayonini amalga oshirish vositasi va tashkil etish usuli hamda bilimlar, munosabatlar, harakatlar, shakllar, metodlar, metodlar majmui sifatidagi to'rtta asosiy yondashuvini aniqlashga imkon beradi.

Ta'lim oluvchilarda amaliy kompetensiyani shakllantirishning axborot-loyiha texnologiyalaridan yana biri bu modellashtirish bo'lib, unda ma'lum bir hodisani, obyektning uning modellari yordamida o'rganishga asoslangan. Amaliyotga yo'naltirilgan ta'limning barcha o'ziga xos metodlari kasbiy rivojlanishning individual-shaxsiy komponentini shakllantirishga va tayanch kompetensiyalarini rivojlantirishga yordam beradi. Amaliy faoliyat klasteri muhitida (dars-suhbat, dars-ma'ruza shaklida o'tkaziladi) foydalanish aqliy, kommunikativ, fikrlash va boshqa shaxsiy ko'nikmalarni rivojlantiradi. Amaliy mashg'ulotlar, shuningdek, maslahat darsi, integratsiyalashgan dars, o'yin darsi, muammoli o'qitish elementlari bo'lgan seminarlarda "fikrlash" holatida bo'ladi va muammoli vazifalarni hal qilishda hammuallif sifatida qatnashdilar[6]. Integratsiyalashgan darslarda mavzu mazmuni turli nuqtai nazardan o'rganilsa, dars – o'yin darsida talabalarning turli xil o'quv faoliyati va kognitiv faoliyatiga qiziqishini saqlab qolishga yordam beradi. Ta'lim va amaliy faoliyat klasterida amalga oshiriladigan kasbiy rivojlanish uchun ta'lim jarayonini amaliyotga tatbiq etishning uch bosqichni o'z ichiga oladi: birinchisi, kasbiy moyilligini aniqlash; ikkinchisi - kasbiy yo'nalishni shakllantirish; uchinchisi - kasbiy rivojlantirish.

Shunday qilib, kasbiy kompetensiyani tizimli shakllantirishga yo'naltirilgan amaliy mashg'ulotlarning didaktik ta'minoti ta'lim jarayonini tashkil etishning turli shakllarini optimal integratsiyalashuvi tizimli yaxlit integratsiyalashgan amaliyotga yo'naltirilgan o'qitish texnologiyasining uslubiy va tashkiliy-uslubiy asosini tashkil etadi, bu esa kasbiy tayyorgarlikning shakllanishni kuzatish, taqlid, qo'llash bosqichlarida yakka va jamoaviy tarzda ishni tashkil qilishda axborotli resurslarini keng jalb qilishni taqozo etadi.

Adabiyotlar:

1. Robert I.V. Teoriya i metodika informatizatsii obrazovaniya (psixologo-pedagogicheskiy i texnologicheskiy aspekt) -El. izd. -M.: BINOM. Laboratoriya znaniy, 2014. - 398 s.
2. Fedorova M.A. Teoriya i metodicheskoye obespecheniye formirovaniya uchebnoy samostoyatelnoy deyatelnosti studentov v vuz: dis. ... d-ra ped. nauk/ M.A. Fedorova. – Orel, 2011. – 39 s.
3. Azizxo'jayeva N.N. Pedagogik texnologiyalar va pedagogik mahorat. O'quv qo'llanma. O'zbekiston yozuvchilar uyushmasi "Adabiyot jamg'armasi" nashriyoti. Toshkent, 2006.-160 b.
4. Klarin M.V. Pedagogicheskaya texnologiya v uchebnom protsessy: Analiz zarubejnogo opyta. M.: 1989.



5. Selevko G.K. *Sovremennye obrazovatelnye tekhnologii: Uchebnoye posobiye*. – M.: Narodnoye obrazovaniye, 1998. – 256 s.

6. Belyayeva A.P. *Integrativno-modulnaya pedagogicheskaya sistema professionalnogo obrazovaniya* / A.P. Belyayeva. – SPb., 1997. – 226 s.

РЕЗЮМЕ

Talabalarda amaliy kompetensiyani shakllantirish raqobatbardosh mutaxxsi tayyorlashning asosiy shartlaridan biri hisoblanadai. Mazkur maqolada tarix yo'nalishi talabalarida amaliy kompetensiyani shakllantirishning axborot-loyixa texnologiyalari va metodik jihatlari tahlil etilgan.

РЕЗЮМЕ

Формирование у студентов практической компетентности является одним из основных условий подготовки конкурентоспособного специалиста. В данной статье анализируются информационно-Проектные технологии и методические аспекты формирования практической компетенции у студентов исторического направления.

SUMMARY

The formation of practical competence in students is one of the main conditions for training a competitive specialist. This article analyzes information and design technologies and methodological aspects of the formation of practical competence among historical students.